O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)

SAMARQAND 2025

	АКТИВНОСТИ В СФЕРЕ УСЛУГ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕНОЙ» ЭКОНОМИКИ	
Тошназарова Лола Шухратиллаевна	ФОНД БОЗОРИДА ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ИШТИРОКИНИ КУЧАЙТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ	437-440
Rafiyeva Zarina Husanovna	O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING ROLI: HOLAT TAHLILI VA ISTIQBOLLAR	440-442
Xolmirzayeva Gulruh Akbarovna	BANKLAR VA SUG‘URTA AGENTLARI TOMONIDAN TAKLIF QILINGAN INVESTITSION ALTERNATIVALAR	442-444
Xolmirzayeva Gulruh Akbarovna	INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA MUHITINING O‘RNI	445-448
Xolmirzayeva Gulruh Akbarovna	INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI PASAYTIRISH YO‘LLARI	448-451
Djumayeva Guzal Axtamovna	16-SON “IJARA” MHXSGA MUVOFIQ IJARA BO'YICHA MAJBURIYATLAR HISOBINING AYRIM USLUBIY MASALALARI	451-455
Abdumannonov Bekzod Maksudovich	"GREEN ECONOMY" - PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE CENTRAL ASIAN REGION	455-460
Nafasov Shoxruxbek Hoshimovich	SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING AHAMIYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	460-464
Abdumannonov Bekzod Maksudovich	PRINCIPLES OF SOCIAL AND ECONOMIC JUSTICE ARE THE BASIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF EVERY COUNTRY	464-469
Ostonaqulov Alisher Abdurashidovich	SOLIQ QARZLARINI BAXOLASH VA UNDIRISH TARTIBI	469-471

Shu bilan birga, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG — Environmental, Social, Governance) bilan bog‘liq risklar ham tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Xususan, tabiat resurslarining kamayishi, iqlim o‘zgarishi, korporativ etikaga rioya qilinmasligi yoki xodimlar huquqlari buzilishi kabi omillar investorlar uchun yangi turdagi xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Rivojlangan davlatlarda yirik investitsiya kompaniyalari va fondlar korxonalarni ESG-mezonlari asosida baholashni boshlab yuborgan, bu esa an’anaviy moliyaviy risk tahliliga yangi yondashuvlarni kiritmoqda.

Investitsiya risklarini kamaytirish faqat texnik yoki strategik usullar bilan cheklanib qolmaydi. Investorning psixologik holati, riskga bo‘lgan munosabati ham muhim omillardan biridir. Ko‘plab investorlar bozor o‘zgarishlariga hissiy reaksiya bildiradi va noto‘g‘ri qarorlar qabul qiladi. Masalan, bozor pasayishiga duch kelganida, vahima bilan aktivlarini sotib yuborish, yoki sun’iy ravishda ko‘tarilgan narxlar fonida haddan tashqari ko‘p sarmoya kiritish hollari keng tarqalgan. Shuning uchun investitsiya qarorlarini qabul qilishda hissiy emas, balki analitik yondashuv zarur bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, investitsion risklar ko‘pincha o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Masalan, siyosiy risklar iqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqarishi, bu esa valyuta kurslarining o‘zgarishiga, inflyatsiyaga va oxir-oqibat investitsiya daromadiga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli risklarni baholashda ularning kompleks tahlili va o‘zaro ta’sirini chuqur o‘rganish zarur. Investitsion portfel tuzishda ham har bir aktivning mustaqil xavfigina emas, balki butun portfelga ta’siri hisobga olinishi lozim. Bu uslub zamonaviy portfel nazariyasi (Modern Portfolio Theory) asosida amalga oshiriladi va investor uchun optimal risk/daromad nisbatini ta’minlaydi.

Amaliyotda esa investorlar o‘zlarining maqsadlari, vaqt gorizonti va riskga nisbatan tolerantlik darajasiga qarab turlicha yondashuvlarni tanlaydi. Masalan, yosh investorlar uzoq muddatli strategiyani tanlab, nisbatan yuqori riskli aktivlarga sarmoya kiritishi mumkin. Aksincha, pensiya yoshiga yaqin bo‘lgan investorlar esa ko‘proq barqaror, past riskli investitsiyalarni afzal ko‘radi. Shuningdek, yirik kompaniyalar, institutsional investorlar ko‘pincha murakkab risk boshqaruv mexanizmlaridan foydalanadi. Ular sug‘urta, derivativlar, murakkab moliyaviy modellardan foydalangan holda, risklarni aniqlaydi, baholaydi va minimallashtirish choralarini ko‘radi.

O‘z navbatida, hukumatlar va moliyaviy regulyatorlar ham investitsiya muhitidagi xavflarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Yaxshi ishlab chiqilgan qonunchilik, investor huquqlarini himoya qilish tizimi, bozorlarning shaffofligi va adolatli raqobat muhitini ta’minlash orqali mamlakatga kirayotgan investitsiyalar uchun qulay shart-sharoit yaratiladi.

Xulosa. Investitsion faoliyat har qanday iqtisodiyotda o‘sish va rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Biroq, investitsiya bilan bog‘liq har bir qaror o‘ziga xos xavf-xatarlarni ham o‘z ichiga oladi. Mazkur ish davomida investitsiya risklarining asosiy turlari, ularning kelib chiqish sabablari, iqtisodiy faoliyatga ta’siri va ularni kamaytirishning samarali usullari ko‘rib chiqildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, investitsion risklar ko‘p qirrali bo‘lib, ular ichki va tashqi omillar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bozor, moliyaviy, siyosiy, valyuta, likvidlik va inflyatsiya risklari investor oldida turgan asosiy tahdidlar sirasiga kiradi. Ularni to‘g‘ri baholash va ularga nisbatan strategik yondashuv ishlab chiqish har qanday investitsion qarorning muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Risklarni kamaytirishning asosiy vositalari sifatida diversifikatsiya, fundamental va texnik tahlillar, hedjing, portfel boshqaruvi, shuningdek, investorning psixologik barqarorligi va bozorni doimiy kuzatib borish madaniyati alohida o‘rin egallaydi.

Zamonaviy investitsiya boshqaruvida sun’iy intellekt, axborot texnologiyalari, ESG mezonlari kabi yangi yondashuvlar risklarni aniqlash va minimallashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan yaratilayotgan institutsional shart-sharoitlar – qonunchilik bazasini mustahkamlash, investor huquqlarini himoya qilish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash – ham investitsiya xavfini kamaytirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya risklarini butunlay yo‘q qilish mumkin emas, biroq ular bilan to‘g‘ri ishlash, ularni tahlil qilish va boshqarish orqali xavfsiz va samarali investitsion faoliyat yuritish mumkin. Har bir investor o‘z strategiyasini puxta tahlil asosida tuzishi, risklarni ongli ravishda qabul qilishi va ularga tayyor turishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Xoshimov B.X., Mamatqulov U. “Investitsiyalarni boshqarish”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
3. Soliev N.M. “Moliyaviy menejment”. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2020.
4. Qodirov A.A., Jo‘rayev B.J. “Investitsiyalar iqtisodiyoti”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
5. Elton E., Gruber M. “Modern Portfolio Theory and Investment Analysis”. – Wiley, 2014.
6. Bodie Z., Kane A., Marcus A. “Investments”. – McGraw-Hill Education, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rasmiy sayti – www.invest.gov.uz
8. IMF va Jahon banki hisobotlari – www.worldbank.org, www.imf.org

Djumayeva Guzal Axtamovna
SamISI, Buxgalteriya hisobi kafedrasi assistenti

16-SON “IJARA” MHXSGA MUVOFIQ IJARA BO'YICHA MAJBURIYATLAR HISOBINING AYRIM USLUBIY MASALALARI

Annotasiya. Ushbu maqolada xalqaro standartlarga asosan ijara majburiyatlarining yuzaga kelishi, ularning tan olinishi, aniqlanish masalalari, boshlang‘ich baholanishi, hisobda aks ettirilishi yoritib berilgan. Xalqaro talablarda

kelib chiqib ijara majburiyatlarini balans qiymatini aniqlanishi formulalar asosida ifodalab ko’rsatildi.

Kalit so‘zlar. Ijara bo‘yicha majburiyatlar, foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktiv(FHKA), boshlang‘ich qiymat, ijara, ijara qiymati, ijara majburiyatlari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijara tijorat munosabatlarining keng tarqalgan shakllaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ko‘plab korxonalar o‘zlarining asosiy faoliyati bilan bir qatorda asosiy bo‘lmagan ijara faoliyatini ham amalga oshiradilar. Ijarachi bo‘sh turgan aktivlari: binolar, inshootlar, transport vositalari, omborxonalarini ijaraga oluvchiga ma’lum haq evaziga beradi. Bunda yangidan ish boshlayotgan biznes katta moliyaviy mablag’ kerakligi muammosidan xalos bo‘ladi, mavsumiy ishlaydigan yoki yilning qaysidir faslida ishlatiladigan ko‘chmas mulkka salmoqli mablag‘ sarflamasdan foydalanish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev 2025-yil 20-avgustda tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvida muhim yangilikni e’lon qildi – 2026-yildan “Biznesni 15 daqiqada boshlash” tamoyili asosida tadbirkorlik faoliyatini to‘laqonli yo‘lga qo‘yish mumkinligi sharoitida ijara shartnomalarining rasmiylashtirilishini (tadbirkorning xohishiga ko’ra) ham ta’kidladilar.[166]

Statistika ma’lumotlariga e’tibor beradigan bo’lsak ijara shartnomalari yildan-yilga oshib borayotganligini ko’ramiz. 2023-yilda soliq organlarida 531 757 ta ko‘chmas mulk ijara shartnomasi, o’tgan yilga nisbatan 30,2 % ga oshgan, 2024-yilda soliq organlarida 606 mingta ijara shartnomalari, 2023-yilga nisbatan 15,7 % ga oshgan.[167]

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yuridik shaxslar o'rtasida tuzilgan shartnomalar soni, ular asosida hisoblangan soliq summasi ulushi oshganligini ko'zga tashlanadi.

16-son MHXSga asosan ijaraga oluvchi korxona ijara boshlanishida foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktiv (FHKA)ni va ijara bo‘yicha majburiyatni tan olishi lozim.

N.B.Abdusalomova va F.T.Temirovlar [2021] tomonidan yozilgan “Moliyaviy hisob” o‘quv qo‘llanmada lizing hisobi ko‘rib chiqilgan bo‘lib, 6-sonli “Ijara hisobi” BHMSning o‘rniga “Lizing hisobi” standarti deb ko’rsatilgan. Lizing va ijara tushunchalari bitta tushuncha sifatida qaralgan va lizing oluvchi, lizing beruvchida buxgalteriya o’tkazmalari keltirilgan. Ijarani baholash ko‘rib chiqilmagan.

M.B.Yusupova va G.V.Satvaldiyevalar [2025] “Ijara bo‘yicha xalqaro standart qo‘llanilishining xususiyatli jihatlari” nomli maqolasida xalqaro standartlarga asosan ijaraga ta’rif, ijarada identifikatsiyalangan aktivni aniqlanishi lozimligini, ijarani baholash va hisobotda aks ettirish bilan bog’liq fikrlarni keltirganlar.

G.I.Alekseyeva o‘zining “Учет договора аренды в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности: текущее состояние и перспективы для российских организаций” [2017] nomli maqolasida ijara, uning xalqaro standartlarga ya’ni 17-BHXS (IAS) va 16-MHXS (IFRS)ga asosan turlari,

[166] https://t.me/soliqnews
[167] https://t.me/fiskaltahlil

tan olinishi, baholanishi hamda hisobotda aks ettirilishini nazariy jihatdan yorotib bergan.

Ilmiy adabiyotlar hamda amaliyotni o'rganish davomida shuni aniqladikki, ijarani tan olish, ijaraga oluvchida ijara majburiyatlarini tan olish, boshlang'ich qiymatini aniqlash, hisobda aks ettirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

Ijara munosabatlari 16-son MHXS "Ijara" standartiga muvofiq amalga oshiriladi. 16-son MHXS standartlari talablariga asosan buxgalteriya hisobida foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktiv va ijara majburiyatlarning keltirilgan qiymati tan olinishi talab etiladi. Ko'rsatkichlarni tan olishning tavsiya etilgan uslubiy tartibining amaliyotga qo'llanilishi MHXSlarini sifatli joriy etilishiga xizmat qiladi.

Xalqaro standartlarga asosan ijara bo'yicha majburiyatlar davomiy baholanadi uning boshlang'ich qiymati bilan ushbu ijarani tashkil etish, ijara ob'yektini keltirish, o'rnatish va ishlatish bilan bog'liq xarajatlar qo'shiladi.

Agar ijara uchun pul to'lovlari yilning oxirida amalga oshirilsa, ijara majburiyatlarining balans qiymati hisoblangan foizlar summasiga oshiriladi, to'langan ijara to'lovlari summasiga kamaytiriladi. Buni formula orqali quyidagicha aniqlash mumkin bo'ladi:

$$IMBQ_1 = IMBQ_0 + FS - IT \quad (1)$$

Bu yerda, $IMBQ_1$ – ijara bo'yicha majburiyatlarning oxirgi balans qiymati, $IMBQ_0$ – ijara majburiyatlarining boshlang'ich balans qiymati, FS – hisoblangan foizlar summasi, IT – Ijara to'lovlari.

Hisoblangan foizlar summasi ijara majburiyatlarining boshlang'ich balans qiymatiga nisbatan diskontlash stavkalari asosida quyidagicha aniqlanadi:

$$FS = {(IMBQ_0 \text{x } DS\%)}/{100\%} \quad (2)$$

Yuqoridagi formulalar asosida foizlar va ijara bo'yicha majburiyatlarning oxirgi balans qiymati moliyaviy hisobotda aks ettiriladi.

Agar ijara uchun pul to'lovlari yilning boshida amalga oshirilsa ijara majburiyatlarining balans qiymati hisoblangan foizlar summasiga oshiriladi, to'langan ijara to'lovlari summasiga kamaytiriladi. Buni formula orqali quyidagicha aniqlash mumkin bo'ladi:

$$IMBQ_1 = IMBQ_0 - IT + FS \quad (3)$$

Bu yerda, $\mathbf{IMBQ_1}$ – ijara bo'yicha majburiyatlarning oxirgi balans qiymati;

$\mathbf{IMBQ_0}$ – ijara majburiyatlarining boshlang'ich balans qiymati;

IT – Ijara to'lovlari;

FS – hisoblangan foizlar summasi.

Hisoblangan foizlar summasi oraliq summaga nisbatan diskontlash stavkalari asosida quyidagicha aniqlanadi. Oraliq summa esa ijara majburiyatlarining

boshlang‘ich qiymatidan yil boshida amalga oshirilgan ijara to‘lovlarini chegirib tashlash orqali topiladi.

$$FS = {[(IMBQ_0 - IT) \text{x } DS\%]}/{100\%} \quad (4)$$

Xalqaro standartlarga muvofiq ijara hisobini takomillashtirishda quyidagilarni hisobga olishni tavsiya etamiz:

Ijara bilan bog’liq majburiyatlar hamda ijara bo‘yicha majburiyatlarning boshlang‘ich bahosini, ijara bo‘yicha majburiyatlarning oxirgi balans qiymati hamda hisoblanadigan foizlarni xalqaro standart talablari asosida aniqlanishini amalda qo’llash;

Yuqorida taklif etilayotgan ijara bo’yicha majburiyatlarning balans qiymatini aniqlanishi, milliy hisobning xalqaro hisobga integrasiyasini yaqinlashtiradi, hisobot ma’lumotlarining haqqoniyligini oshiradi.

Hozirgi xalqaro standartlarni joriy etish sharoitida korxonalarda ijara shartnomalarining nafaqat huquqiy shaklini, balki iqtisodiy ahamiyatini xalqaro standartlar asosida tan olinishini joriy etish;

Shunday qilib, ijara hisobini xalqaro talablarga asosan yuritilishi va hisobotda to’g’ri aks ettirilishi axborot foydalanuvchilar uchun hisobotning foydaliligini oshirishga hamda oqilona qarorlar qilinishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ijara to‘g‘risida”gi Qonuni. 19.11.1991yil, 427-XII-SON
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Qarori. 2020 yil 24 fevral, PQ-4611-son
3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (2022) 16-son “Ijara”
4. Buxgalteriya hisobi milliy standarti (2004) 6-son “Ijara hisobi”
5. Abdusalomova N.B, Temirov F.T. Moliyaviy hisob. O‘quv qo‘llanma. –T.: IQTISODIYOT, 2021. – 283 b.
6. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriyahisobi. Darslik. T.: “Innovatsionrivojlanishnashriyotmatbaauyi”, 2020, 558 b.
7. С. Ташназаров. Молиявий бухгалтерия ҳисоби 1 дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ нашриёти, 2023 - 438 бет.
8. С.Ташназаров ва бошқалар. Молиявий бухгалтерия ҳисоби 2. [Матн]: дарслик/СамИСИ –Самарқанд.: “STEP – SEL” МЧЖ нашриёти, 2024 -780 бет.
9. Эргашева Ш.Т., Учебник «Международные стандарты финансового отчетности» –Т.: ТГЭУ, 2020 г.
10. M.B.Yusupova, G.V.Satvaldiyeva [2025] “Ijara bo‘yicha xalqaro standart qo‘llanilishining xususiyatli jihatlari” // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, mart, № 3-son, 725-729 betlar. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz.
11. G.I.Alekseyeva “Учет договора аренды в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности: текущее состояние и